



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PEDAGOG SHAXSIGA QO'YILGAN TALABLAR VA UNING KONSEPTUAL ASOSI

Meliqo'ziyeva M.A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Abdullajonova Sh.A.

Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagog, pedagog shaxsig qo'yilgan talablar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, didaktik talablar, tarbiyaviy talablar.

Ключевые слова: педагог, требования к педагогу, Закон «Об образовании», дидактические требования, образовательные требования.

Key words: pedagog, requirements for a pedagogue, Law «On Education», didactic requirements, educational requirements.

Pedagoglik kasbi jamiyatda sharafli kasb bo'lishi bilan birga o'ta mas'uliyat talab etuvchi, har qanday vaziyatda ham jamiyat tomonidan belgilangan yosh avlodga munosib ta'lim – tarbiya berishni oqilona yechimini izlashga va qo'llashga qaratilgan faoliyatdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir" deb ustoz muallimlarga o'zlarining tabriklarini yo'llar ekanlar, ushbu fikr negizida ustoz va murabbiylarga ma'suliyatli vazifani yuklaydilar. Ushbu ma'suliyatli vazifa mamlakatimiz farzandlarining ta'lim va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan, kelajakda mamlakat istiqbolini belgilashda asosiy omilni belgilab beradigan pedagogning mashaqqat yo'lidir.

Mamlakatimizda yangilanishlar negizida isloxotlar avvalo ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanishi kerakligini xar bir aqli teran fuqaro anglab yetgandir. Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish eng avvalo pedagog faoliyatini takomillashtirish demakdir. Pedagogning kasbiy mahorati va ma'naviy yetukligi yosh avlodning xar tomonlama kamol topishidagi najot yo'lidir.

Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat, azm-u shijoat bilan mehnat qilishni talab

etadi hamda ana shu talab asosida tinimsiz izlanish va ijodkorlikni, shuningdek serqirralikni talab etadi. Pedagog bola ta'lim tarbiyasidagi ta'sir ko'rsatishning bosh omili ekan, tabiiyki savol tug'iladi xo'sh u qanday talablarga javob bera olishi kerak? Ushbu pedagoglar uchun qo'yilgan talabning aniq me'yoriy asosi bormi?

A'zam Xoliqovning "Pedagogik mahorat" nomli darsligida o'qituvchi shaxsining mahoratli o'qituvchi maqomiga ega bo'la olshi uchun quyidagi pedagogik talablar mavjudligini sanab o'tadi:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

Ushbu keltirilgan pedagog shaxsiga qo'yilgan talablar albatta ilmiy asosga ega bo'lgan nazariyalarga tayanilgan holda vujudga kelgan.

Respublikamizda ta'lim soxasidagi munosabatlarning tartibga solinishidagi konseptual asos bu "Ta'lim to'g'risida" gi Qonundir. Aynan shu qonun pedagog shaxsining barcha huquqiy maqomi va majburiyatlari masalasiga oydinlik kirituvchi xuquqiy kuchga ega bo'lgan davlat xujjatidir.

Pedagogik faoliyatning maqsadi va jamiyat oldidagi vazifalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi (2020-uil 23-sentabr, O'RQ-637-son) Qonunida 46-modda asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid quyidagi majburiyatlar ya'ni talablar keltirilgan.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi;
- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;
- ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;



- tibbiy ko‘rikdan o‘z vaqtida o‘tishi shart.
- Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek ta‘lim oluvchi va ta‘lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.
- Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi.
- Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta‘lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

Ushbu yuqorida keltirilgan majburiyatlar asosida respublikamizda pedagog-xodimlarning faoliyati muntazam o‘rganib boriladi.

Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham o‘zining 2019 yil 28-sentyabrdagi tantanali nutqida ustoz va murabbiylarga yo‘llagan tabrigida quyidagicha talablarni ustoz va murabbiylar uchun o‘ta muhim bo‘lgan zamon talabi ekanligini takidlaydi: “Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi shiddatli zamon barcha sohalar qatorida ta‘lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham oldimizga g‘oyat muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Albatta, yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, o‘quv binolarini qurish, ularni zamonaviy jihozlash mumkin. Lekin farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta‘lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o‘qituvchilarni tayyorlash – bu eng og‘ir vazifa bo‘lib, juda katta mehnat va mas‘uliyatni talab etadi.

Shu ma‘noda, bugungi kun o‘qituvchisi universal mutaxassis, ham o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi bo‘lishi, ya‘ni, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak.

Eng muhimi, o‘qituvchi chinakam vatanparvar inson bo‘lishi zarur. Qalbida o‘z kasbiga, Vataniga mehr va sadoqat kuchli bo‘lgan o‘qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi”.

Mamlakatimizda o‘qituvchi-murabbiylarning qadr-qimmatini, sha‘ni va obro‘cini tiklash ularning ta‘lim va tarbiya tizimida yutuqlarga erishishlari uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratishga berilayotgan alohida e‘tibor tufayli pedagoglarning qadr-qimmatini mamlakatimizda bugungi kunda davlat himoyasidir. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 21 moddadan iborat bo‘lib, 2024-yil 1-fevraldan kuchga kirdi.

Ushbu Qonun pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari va ular faoliyatining asosiy kafolatlarini belgilaydi hamda O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat ta‘lim tashkilotlarining pedagoglariga nisbatan tatbiq etiladi.



Albatta pedagoglarning vazifasi ham jamiyat talablari asosida kundana - kunga takomillashib bormoqda. Bizning mualliflik tavsiyamizga ko'ra pedagog xodimlarga qo'yilgan talablarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu talablarning barchasini bugungi kun pedagoglari uchun o'z ahamiyatiga egadir.

Ushbu talablarning tizimida biror bir komponent o'zining o'rnini yo'qotar ekan pedagogning kasbiy faoliyati mazmuni va maqsadi ham noqis bo'lib qoladi. M.Nurmatovanning "Umumiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmasida pedagog shaxsiga quyidagicha talablar majmuyi keltirilgan:

1. Faoliyatdan kutilgan maqsadni o'quvchilar jamoasi ham alohida o'quvchi ham aniq his qilishi.
2. Faoliyatni tashkil etishda o'quvchilar tashabbusi va ijobiy faollikka suyanishi.
3. O'quvchi faoliyatiga pyedagogik rahnamolik qilishi
4. Faoliyat jarayonida har bir bola sohibkorlik va ijrochilik malakalarini egallab borishi.
5. Ish natijasini muhokama qilish, ishtirokchilarni rag'batlantirish.

Buyuk Sharq mutaffakiri Ibn Sino ta'limotida ham o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritilar ekan, pedagog shaxsiga qo'yilgan didaktik talablar masalasiga urg'u berib, quyidagi mulohazalarni bildiradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanishi;
- talabaling xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi lozim deb fikr bildiradi.

O'qituvchilik kasbining eng murakkab va nozik, asosiy talablaridan biri sifatida u bolajon bo'lishi, bolalarni sevibgina qolmasdan, ularning taqdirini, o'z taqdiri bilan bog'lay olishi zarur. O'quvchining kelajagini yuqori cho'qqilarda ko'rishni istagan o'qituvchigina uning qalb memoriga aylana oladi va buyuk memor sifatida jamiyat tarixini yaratadi, hamda o'zi ham shu tarixda qoladi.

Adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.
2. "Ta'lim to'g'risida" qonun. 2020-yil 23-sentabr.



3. “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (<https://lex.uz/docs/-6786401>).

4. Sh.M.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2019 yil 28-sentabr.

РЕЗЮМЕ

Usbu maqolada pedagog shaxsiga qo‘yilgan talablar va uning konseptual asosi haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Pedagog shaxsining kasbiy faoliyatiga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yilgan talablarning konseptual asosi sifatida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun asosida uning majburiyatlaridan kelib chiqib bir qancha talablar keltiriladi. Shuningdek maqolada pedagog shaxsiga qo‘yilgan talablarning ilmiy asoslari turli mualliflarning nazariyalari asosida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описываются требования к педагогу и комментируются его концептуальные основы. В качестве концептуальной основы требований, предъявляемых государством и обществом к профессиональной деятельности педагога, представлен ряд требований, основанных на его обязанностях на основании Закона «Об образовании». В статье также описывается научная основа требований, предъявляемых к педагогу, исходя из теорий различных авторов.

SUMMARY

This article describes the requirements for a pedagogue and comments on his conceptual basis. As a conceptual basis of the requirements imposed by the state and society on the professional activity of a teacher, a number of requirements based on his obligations are presented on the basis of the Law «On Education». The article also describes the scientific basis of the demands placed on a pedagogue based on the theories of various authors.